



“MILLIY YUKSALISHNING YANGI O‘ZBEKISTON MODELI”

***(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va
O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi)***

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

**Toshkent shahri
2026-yil, 17-fevral**

Музаффар КАМИЛОВ,
*Ўзбекистон халқаро исломшунослик
академияси ректори*

ПРЕЗИДЕНТ МУРОЖААТНОМАСИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИНИ БЕЛГИЛАБ БЕРАДИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган навбатдаги Мурожаатномаси Янги Ўзбекистон тараққиётининг яқин ва ўрта истиқболдаги устувор йўналишларини белгилаб берган муҳим сиёсий-ҳуқуқий ва дастурий ҳужжат сифатида алоҳида аҳамият касб этади. Мурожаатнома мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг мантиқий давоми бўлиб, давлат ва жамият ривожининг стратегик мақсад ва вазифаларини белгилаб берди.

Мурожаатномада 2025 йил якунлари сарҳисоб қилиниб, давлатни янада барқарор ривожлантириш, халқ фаровонлигини юксалтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш борасидаги ўта долзарб вазифалар аниқ-равшан белгилаб берилди. Мамлакатимиз раҳбари ўз чиқишида кўплаб халқчил таклиф ва ташаббусларни илгари сурди. Уларнинг рўёби жамиятда фаолликни оширади, давлат ва халқ ўртасида очиқ мулоқотни мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, Мурожаатномада ўтган даврда эришилган натижалар танқидий таҳлил қилиниб, келгуси йилларда амалга оширилиши лозим бўлган ислоҳотларнинг аниқ устувор йўналишлари белгилаб берилди. Хусусан:

Биринчи устувор йўналиш – маҳалла инфратузилмасини янада яхшилаш, уларга Янги Ўзбекистон қиёфасини олиб кириш.

Иккинчи устувор йўналиш – иқтисодиётни технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтказиш.

Учинчи устувор йўналиш – ички бозорда талабни рағбатлантириш.

Тўртинчи устувор йўналиш – касбларни ривожлантириш ва янги меҳнат бозори архитектурасини яратиш.

Бешинчи устувор йўналиш – экологик мувозанатни таъминлаш, “яшил” энергетика ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш.

Олтинчи устувор йўналиш – замонавий давлат бошқаруви ва адолатли суд-ҳуқуқ тизими борасидаги ислохотларни давом эттириш.

Президентимиз томонидан илгари сурилган ташаббуслар инсон манфаатларини таъминлаш, жамият барқарорлигини мустаҳкамлаш, давлат бошқарувини замонавий талаблар асосида такомиллаштиришга қаратилгани билан аҳамиятлидир.

Айниқса, 2026 йилнинг “Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили” деб эълон қилиниши давлат сиёсатининг инсон манфаатларига йўналтирилгани, маҳалланинг жамиятдаги ўрни ва ролини янада оширишга қаратилган тизимли ёндашувнинг ифодасидир, десак адашмаймиз.

Маҳалла инфратузилмасини яхшилаш, ижтимоий хизматлар сифатини ошириш ва аҳолининг турмуш даражасини юксалтириш ислохотларнинг муҳим устувор йўналиши сифатида белгилаб қўйилди.

Мурожаатномада коррупцияга қарши кураш масаласи алоҳида урғу билан қайд этилди. 2026 йилда ушбу йўналишда “фавқулодда ҳолат” эълон қилиниши, “қонун олдида ҳамма тенг” тамойилининг қатъий қўйилиши давлат бошқарувида шаффофлик, ҳисобдорлик ва адолатни таъминлашга қаратилган сиёсий ироданинг яққол ифодасидир. Давлат органларида комплаенс назорати ва ички аудит тизимларини кучайтириш

орқали коррупция омилларини бартараф этиш асосий вазифа сифатида белгиланди.

Шунингдек, Мурожаатномада иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, ички бозорни барқарор ривожлантириш, меҳнат бозорини янги технологиялар талаблари асосида қайта шакллантириш ҳамда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалалари илмий-назарий ва амалий жиҳатдан асослаб берилди. Бунда рақамлаштириш, сунъий интеллект ва “яшил иқтисодиёт” тамойилларини жорий этиш устувор вазифалар сифатида белгиланди.

Ушбу илмий-амалий мақолалар тўпламида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Мурожаатномасида белгиланган устувор йўналишларнинг илмий-амалий таҳлили амалга оширилиб, уларнинг жамият тараққиёти, маънавий барқарорлик ва исломшунослик соҳалари билан узвий боғлиқ жиҳатлари комплекс тарзда ёритилган. Тўпلامда келтирилган тадқиқот натижалари мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларни илмий жиҳатдан англаш, уларни амалиётга татбиқ этиш ҳамда соҳавий ривожланиш стратегияларини такомиллаштиришда муҳим назарий ва амалий манба бўлиб хизмат қилади.

Мухтасар айтганда, давлатимиз раҳбарининг парламент ва халқимизга йўллаган Мурожаатномаси юрт тараққиётининг 2026 йилдаги долзарб йўналишлари ва истиқболларини қамраб олган жуда муҳим стратегик ҳужжат бўлди. Шундай экан, ҳар биримиз ислохотлар жараёнига ҳиссамизни қўшишимиз, инсон қадри улуғланган юрт ривожига, тараққиёти учун бор куч ва салоҳиятимизни сафарбар этишимиз, белгиланган вазифалар ижросини таъминлашда янада фаол ва ташаббускор бўлишимиз лозим. Зотан, Президентимиз таъбири билан айтганда, “Бир

бўлсак, ягона халқ, ягона миллат бўлиб олға интилсак, кўзлаган улкан мақсадларимизга албатта етамиз!

Мен бу йўлда мард ва олижаноб халқимизга ишонаман!

Ўзбекистоннинг беқиёс кучи ва имкониятларига, азиз ёшларимизнинг азму шижоатига ишонаман!”.

Акмал САИДОВ,

*Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутаты,
Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази директори*

ТАРИХИЙ МУРОЖААТНОМА

“Бугунги кунда жамиятимизда турли хил фикр ва қарашлар бўлиши табиий. Бу – демократиянинг бирламчи талаби. Аммо миллати, тили ва динидан қатъи назар, бутун эл-юртимизни бирлаштирадиган улуғ бир ғоя бор. У ҳам бўлса, Ватан манфаати, халқимиз манфаатидир”.

Бу асосли эътироф Ўзбекистон Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 2025 йил 26 декабрь куни тақдим этилган Мурожаатномасида янгради.

ЎЗБЕКИСТОН ПРЕЗИДЕНТИ – ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ПАРЛАМЕНТИНИНГ МЕЪМОРИ

Кейинги тўққиз йилда жамиятимиз ва давлатимиз катта тараққиёт йўлини босиб ўтди. Мамлакатимиз ҳаётининг барча соҳалари қатори миллий парламент тизимида ҳам улкан ислохотлар амалга оширилди.

Бу ҳақда фикр юритганда, албатта, ўтган тўққиз йил ичида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенати дунё парламентларига хос барча ижобий хусусиятларни ўзида қамраб

Javohirxon SOBIROV

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi katta o'qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)*

O'ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA BARQAROR VA MUVOZANATLI SIYOSATI

XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimi tubdan o'zgarib, global muammolar ko'lami va murakkabligi jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Iqlim o'zgarishi, yadroviy xavf, transmilliy terrorizm, pandemiyalar va kiberxavfsizlik kabi tahdidlar alohida davlatlarning yakka harakati bilan hal etilishi mumkin emasligini amaliyotning o'zi ko'rsatmoqda. Shu sababli xalqaro hamkorlik mexanizmlari jahon hamjamiyatida barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlashning muhim vositasiga aylanmoqda. Davlatlar o'rtasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, mintaqaviy va global muammolarga birgalikda yechim topish zarurati tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib, ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilishi, xomashyo va moliyaviy resurslar narxining keskin oshishi fonida xalqaro tizim beqaror holatga kelmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda, O'zbekistonning tashqi siyosati ochiqlik, o'zaro manfaatdorlik va pragmatizm tamoyillariga asoslanib, mintaqaviy hamkorlikni milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida ilgari surilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Boshlangan demokratik islohotlarning izchil davom ettirilishi, jamiyatda ijtimoiy birdamlik va fuqarolik faolligining

ortishi mamlakatning ichki barqarorligini ta'minladi. Aynan shu ichki barqarorlik O'zbekistonning tashqi siyosatda faol va tashabbuskor bo'lishiga zamin yaratdi. Darhaqiqat, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, davlatimiz va jamiyatimiz rivojida keskin burilishlarning mazmun mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular bugungi davr talabi va ko'p millatli xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilayotganini ko'ramiz. Shuning uchun ham bu islohotlar mamlakatimiz tarixida yangi davr, ya'ni yuksalish va taraqqiyot bosqichini boshlab berayotgan yangilanishlar sifatida baholanmoqda.¹⁷⁰

Zamonaviy global tartib sharoitida mintaqaviy tashkilotlar faqat iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi institut emas, balki davlatlarning strategik avtonomiyasini saqlash hamda mintaqaviy identiklikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda faoliyat yuritayotgan mintaqaviy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik va raqobat jarayonlari yangi integratsion modellarni shakllantirib, ishtirokchi davlatlarning tashqi siyosiy manevr va strategik muvozanatni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ko'p tomonlama diplomatiya O'zbekiston tashqi siyosatining transformatsiyasida muhim vosita bo'lib, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida manfaatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mintaqaviy tashkilotlar hukumatning ustuvor vazifalarini aniqlash va birgalikda ko'rib chiqishni talab qiladigan masalalar bo'yicha siyosatni ishlab chiqishga hissa qo'shadilar. Ular siyosiy muzokaralar uchun forum yaratadi, xalqaro ahamiyatga molik masalalarni hal etadi va xalqaro kun tartibini belgilaydi. Mintaqaviy tashkilotlar a'zo davlatlariga milliy miqyosda aniq harakatlarni ishlab

¹⁷⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-tashqi-siyosati-milliy-manfaatlarga-asoslangan-faol-va-pragmatik-yo-l/viewer>

chiqishda yordam berish orqali barqaror rivojlanish siyosatini samarali o'tishida yaqqol o'zini ko'rsatadi. Insoniyat oldida turgan bugungi dolzarb muammolar – turli xavf-xatarlarga qarshi global kurash, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash, davlatlararo mojarolarning oldini olish, ularni tinch yo'l bilan hal qilish, iqlim o'zgarishi, xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishi va tabiiy ofatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashishda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ko'p tomonlama hamkorlikning rivojlanishi bir qator ilmiy-tadqiqot doiralarining qiziqishi ortishiga hamda tashkilot faoliyati va istiqbolini chuqur tadqiq etishga undamoqda.

O'zbekiston Respublikasining ochiqlik va konstruktivlikka asoslangan pragmatik tashqi siyosatida Turkiy davlatlar tashkiloti muhim va ustuvor ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga a'zolikka kirish qarori ko'p asrlik chuqur ildizlarga asoslangan madaniy va tarixiy qardoshlikni yanada rivojlantirish, zamon talablariga muvofiq turkiy tilli davlatlar manfaati, farovonligi nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. O'zbekistonning mazkur tashkilotda ishtiroki milliy manfaatimizni ham namoyon etadi. Ushbu tashkilotdagi ishtirok milliy manfaatlarimizga qanchalik mos ekani quyidagicha ifodalangan: "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o'zaro samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdormiz. Hozirgi bosqichda uning faoliyatida mamlakatimiz uchun amaliy jihatdan qiziqish uyg'otadigan yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etishga tayyormiz".¹⁷¹

Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda jadal rivojlanayotgan mintaqaviy hamkorlik tuzilmalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tashkilot turkiy tilli davlatlarning umumiy tarixiy ildizlari, madaniy yaqinligi va etnolingvistik birlik tamoyillariga asoslangan.

¹⁷¹ Мирзиёев Ш.М. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитида нутқи /Prezident.uz/ 2018 <https://president.uz/oz/lists/view/2012>

Tashkilotning bosh maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va madaniy yaqinlashuvni ta'minlashdan iboratdir.

Ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlarining institutsional asoslari sifatida TDT doirasida siyosiy maslahatlashuvlar, davlat rahbarlari sammitlari, iqtisodiy kengashlar, tarmoq ishchi guruhlar, madaniy-gumanitar institutlar hamda transport, energetika va raqamli integratsiya platformalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu mexanizmlar mintaqaviy integratsiyaning barqaror va tizimli modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga faol qo'shilishi mamlakat tashqi siyosatidagi muhim strategik qadam bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning mintaqaviy va global maydondagi ishonchli hamkor sifatidagi mavqei mustahkamlandi. Natijada qo'shni, yaqin va uzoq davlatlar bilan mutlaqo yangi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar shakllandi.

Mazkur jarayonda Turkiy davlatlar tashkiloti O'zbekiston uchun muhim muloqot va hamkorlik maydoniga aylandi. TDT doirasida O'zbekiston siyosiy muloqotni faollashtirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transport-logistika aloqalarini rivojlantirish va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan quyidagi fikr mamlakatning TDT doirasidagi siyosiy yondashuvini konseptual jihatdan ifodalaydi:

“Biz uchun hozirgi global taraqqiyot davrida, dunyoda o'ta keskin va tahlikali jarayonlar yuz berayotgan bugungi kunda milliy birlik nihoyatda muhim va zarur. Donishmand bobolarimizning “Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar”, degan hikmatli maqoli bor. Chindan ham, qarang, kimki birlashdi – hayotda o'zdi, g'alabaga

erishdi. Kimki birlashmadi – to‘zib, yo‘q bo‘lib ketdi.¹⁷²” Ushbu yondashuv TDT doirasida hamkorlikni chuqurlashtirishning mafkuraviy asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston TDT doirasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish mamlakatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Turkiy investitsiya fondining tashkil etilishi, sanoat kooperatsiyasi va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Transport-logistika sohasida “O‘rta korridor” tashabbusi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalish Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi muhim tranzit yo‘lagi sifatida turkiy davlatlarning global ta‘minot zanjirlaridagi rolini kuchaytiradi. O‘zbekiston mazkur loyihada faol ishtirok etib, mintaqaning transport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shmoqda.

Energetika sohasida esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va yashil texnologiyalar bo‘yicha tajriba almashuvi TDT doirasidagi hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya zamonaviy hamkorlikning ajralmas qismiga aylanmoqda. “Raqamli ipak yo‘li” tashabbusi turkiy davlatlar o‘rtasida raqamli integratsiyani kuchaytirib, elektron savdo, raqamli davlat xizmatlari va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tashkilotning iqtisodiy va gumanitar tashabbuslari – xususan, Turkiy investitsiya fondi, Turkiy savdo palatasi, Turkiy akademiya va Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi kabi tuzilmalar orqali ham xavfsizlikni keng ma‘noda – iqtisodiy barqarorlik, ma‘naviy birlik va

¹⁷² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2025) <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

axborot muhitining mustahkamligi orqali ta'minlash ko'zda tutilgan. Turkiy davlatlar tashkiloti o'zining zamonaviy xavfsizlik modeli bilan mintaqada harbiy raqobat emas, balki hamkorlik, ishonch va o'zaro taraqqiyotga asoslangan yangi xavfsizlik arxitekturasini shakllantirishga intilmoqda. Bu yondashuv Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida barqarorlikni mustahkamlash, geosiyosiy muvozanatni saqlash hamda turkiy davlatlarning global miqyosdagi nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan takliflarda xavfsizlik strategiyasi kengroq mazmunga ega faqat harbiy uslublar emas, balki axborot, kanallar orqali hamkorlik, yoshlar radikalizatsiyasiga qarshi tadbirlar, urush maydonlaridan qaytgan fuqarolarni jamiyatga qaytarish kabi elementlarga tayangan. TDT doirasida ushbu tashabbuslar "yumshoq kuch", diplomatiya va hamkorlikka asoslangan xavfsizlik arxitekturasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yo'l bilan mintaqaviy davlatlar ham tashqi tahdidlar(terrorizm, ekstremizm, kiberoxavfsizlik)ga birgalikda javob bera olishi ko'zda tutilgan.

TDT faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, u mintaqaviy xavfsizlikni klassik harbiy bloklar kabi kuch ishlatish asosida emas, balki siyosiy ishonch, axborot barqarorligi va iqtisodiy farovonlik orqali ta'minlashga qaratilgan. Bu inson xavfsizligi konsepsiyasining mintaqaviy ifodasidir. Shu bilan birga, tashkilot faoliyatida ayrim muammolar – moliyaviy resurslarning yetishmasligi, geosiyosiy manfaatlar tafovuti va harbiy hamkorlikning institutsional zaifligi saqlanib qolmoqda. Ammo TDT xalqaro miqyosda tobora ortib borayotgan nufuzi bilan Markaziy Osiyo xavfsizlik arxitekturasida barqaror, ishonchga asoslangan hamkorlik modelini shakllantirmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi hududlarda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim platforma sifatida o'zaro hamkorlikning mustahkamligiga xizmat

qiladi. TDTning eng muhim rollaridan biri — bu mintaqadagi xalqaro munosabatlar va siyosiy barqarorlikka hissa qoʻshishdir. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda turli geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlar, shu jumladan, global raqobat, milliy manfaatlar, shikastlangan yoki yaxshi shakllangan diplomatik munosabatlar va ijtimoiy-ekonomik munosabatlar orqali inqirozlarga olib kelishi mumkin. TDTning mustahkam hududiy integratsiyani taʼminlashdagi strategik vazifasi mintaqadagi davlatlar oʻrtasidagi siyosiy barqarorlikni saqlash, ikkala iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlikka oid keng koʻlamli dasturlar ishlab chiqish va maʼnaviy integratsiyani jadallashtirishdan iborat boʻladi.¹⁷³

Turkiy davlatlar tashkiloti, geosiyosiy sharoitda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mintaqaviy platforma va tashabbuslar bilan hamkorlikda, xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. TDT, ichki barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, madaniy aloqalarni oʻrnatish orqali mintaqa davlatlarining turmush darajasini oshirish va xalqaro maydondagi taassurotni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bunday strategik integratsiya Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror va hamjihat iqtisodiy-siyosiy muhitni yaratishga olib keladi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash, global va mintaqaviy muammolar boʻyicha siyosiy maslahatlashuvlarni kengaytirish, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni kuchaytirish hamda turkiy madaniyat va maʼnaviyatni asrash va rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirishdir. Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikning faollashuvi nafaqat qoʻshni davlatlar bilan, balki mintaqadan tashqaridagi yangi sheriklar bilan ham koʻp

¹⁷³ Велиев, А. (2021). Туркий давлатлар ташкилоти ва Марказий Осиёдаги сиёсий барқарорлик. Марказий Осиё ва халқаро алоқалар, 4(1), 19-34.

tomonlarni aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Ko'p qutbli dunyo shakllanayotgan hozirgi davrda TDT doirasidagi hamkorlik tashqi xatarlarni yumshatish, ichki barqarorlikni ta'minlash va geosiyosiy moslashuvchanlikni oshirish imkonini bermoqda. Turkiy davlatlar hamkorligi tashqi iqtisodiy zarbalarga nisbatan chidamlilikni oshirib, umumiy strategik manfaatlarni himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi siyosati mamlakat tashqi siyosatining muhim ustunlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Institutsional yaqinlashuv, iqtisodiy integratsiya, transport-logistika, energetika va raqamli hamkorlik barqaror taraqqiyotning asosiy tayanchlari sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston TDT doirasida faol va tashabbuskor ishtirok etib, turkiy dunyoni global iqtisodiy va siyosiy makonda muhim strategik mintaqasi sifatida shakllantirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Kelgusida O'zbekistonning TDT doirasidagi faoliyati mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va umumiy taraqqiyot maqsadlariga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib qolishi kutiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2025) <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-tashqi-siyosati-milliy-manfaatlarga-asoslangan-faol-va-pragmatik-yo-l/viewer>

4. Тюркоязычные страны вышли на новый уровень сотрудничества [Электронный ресурс]. URL: <http://www.tuva.asia/news/asia/4043-tyurkoyazychn.html> (дата обращения: 09.05.2016).
5. Sobirov, J. (2020). PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN THE COOPERATION COUNCIL OF TURKIC SPEAKING STATES. EDITOR COORDINATOR, 726.
6. Велиев, А. (2021). Туркий давлатлар ташкилоти ва Марказий Осиёдаги сиёсий барқарорлик. Марказий Осиё ва халқаро алоқалар, 4(1), 19-34.
7. Babahanoğlu, V., & Akbaş, Z. (2023). Türkiye'nin Bölgesel Oyun Kurucu Rolü ve Düzen İnşasına Dair İmkân ve Kabiliyeti: Türk Devletleri Teşkilatı Örneği. Bingöl Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, 7(Prof. Dr. Muammer ERDOĞAN Anısına Kongre Özel Sayısı), 243-268.
8. “Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni”: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: “Elnur-print” nashriyoti, 2024. – 544 bet.
9. Aydın, M. E., & Liu, Y. (2024). Organization of Turkic States: Diverse Motivations For A Common Aim. Siyasal: Journal of Political Sciences, 33(1), 35-54.
10. Sobirov Javohirkhon Alloyorkhonovich. (2025). Uzbekistan's Good-Neighborhood Policy In Ensuring Regional Stability In Central Asia. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 7(12), 127–129. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume07Issue12-20>

MUNDARIJA

1. Камилов М. Президент Мурожаатномаси Янги Ўзбекистон стратегиясини белгилаб беради	2
2. Саидов А. Тарихий мурожаатнома	5
3. Маҳкамова З. Аёл қадри улуғланган жамият	17
4. Қуронбоев Қ. Миллий бирдамликнинг мустаҳкам қалъаси	23
5. Арипов Э. Президент Мурожаатномаси: Ўзбекистон тараққиётининг стратегик дастури	27
6. Қуронов М. Миллат бахтининг йўл харитаси ёхуд Президентимиз Мурожаатномасини ўқиб	33
7. Зиёдов Ш. Мурожаатнома — халқ ҳаёти билан ҳамнафас ҳужжат	44
8. Xamidov O. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim, ilm-fan va mahallaning hal qiluvchi o'rni	50
9. Холиқов Б. Келажак — билимли, баркамол ва соғлом фикрли ёшлар қўлида	52
10. Yunusov X. Prezident Murojaatnomasi – inson qadri va xalq manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan dasturiy hujjat	58
11. Набиев Д. Мурожаатноманинг стратегик аҳамияти	61
12. Тешабоев Т. Юртимиз тараққиётининг «йўл харитаси» ёхуд давлатимиз раҳбарининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасидан кейинги ўйлар	66
13. Хасанов Э. Обращение Президента Республики Узбекистан к Олий Мажлису и народу Узбекистана от 26 декабря 2025 года как стратегический ориентир социально-экономического развития страны	73

83. Sobirov J. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti 480
doirasida barqaror va muvozanatli siyosati
84. Abdusattorov F. O'zbekistonda saylov qonunchiligi 489
evolyutsiyasi va uning siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi
ahamiyati
85. Choriyeva D. B.Berdiyev. O'zbekistonning Markaziy Osiyo 495
bilan transport-logistika integratsiyasi